



## KO'ZI OJIZ BOLALARNING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ESHITUV MASHQLARINING O'RNI

**Sobirova Subinsoxon Muxsinjon qizi**

Farg'ona davlat texnika universiteti, Oliy matematika kafedrası assistenti

*subinsosobirova9810@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu mavzuda ko'zi ojiz bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda eshituv mashqlarining ahamiyati ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilingan. Ko'rish qobiliyatining yo'qligi yoki kamayishi sharoitida eshitish sezgisi kompensator funksiyani bajarishining biologik-psixologik asoslari, eshituv mashqlarining turlari, ularning og'zaki nutq rivojiga ta'siri hamda amaliy tatbiq etish usullari ko'rib chiqilgan. Tezida zamonaviy tiflopedagogik yondashuvlar, O'zbekiston va jahon ilmiy adabiyotlari tahlili asosida aniq tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ko'zi ojiz bolalar, og'zaki nutq, eshituv mashqlari, tiflopedagogika, kompensatsiya, nutq terapiyasi, maxsus ta'lim.

**Abstract.** This topic provides a scientific and methodological analysis of the importance of auditory exercises in the development of oral speech in blind children. The biological and psychological foundations of the compensatory function of the auditory sense in conditions of lack or reduced vision, types of auditory exercises, their impact on the development of oral speech, and methods of practical application are considered. The thesis provides specific recommendations based on modern typhlopedagogical approaches and an analysis of Uzbek and world scientific literature.

**Keywords:** blind children, oral speech, auditory exercises, typhlopedagogy, compensation, speech therapy, special education.

### KIRISH

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning ta'lim-tarbiyasi masalasi pedagogika fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Ko'zi ojiz bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda eshituv mashqlari markaziy ahamiyatga ega bo'lib, ular nafaqat kompensator neyroplastiklik asosida nutq va tilni o'zlashtirishni ta'minlaydi, balki so'z boyligi, talaffuz, ravonlik va intonatsiyani sezilarli darajada yaxshilaydi. Ilmiy tadqiqotlar va tiflopedagogika mutaxassisleri tavsiyalari asosida tuzilgan eshituv mashqlari tizimi og'zaki nutq rivojlanishining eng samarali yo'li hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun (2020), shuningdek, "Maxsus ta'lim to'g'risida" gi qonuniy hujjatlar asosida imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan inklyuziv ta'limni joriy etish va ularning ijtimoiy hayotga moslashuvini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor vazifasi hisoblanadi.



Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko‘ra, dunyoda 285 million dan ortiq ko‘rish qobiliyati cheklangan inson yashaydi, shulardan 19 millioni bolalar hisoblanadi. O‘zbekistonda ham ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar soni yil sayin aniqlashtirib borilmoqda va bu bolalar uchun maxsus pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish zaruriyati ortib bormoqda.

Ko‘rish analizatorining buzilishi bolaning psixomotor rivojlanishiga, jumladan, nutqning shakllanishiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Eshitish sezgisi ko‘zi ojiz bolalarda kompensator funksiyani bajarar ekan, eshituv mashqlarining to‘g‘ri tashkil etilishi nafaqat fonematik eshitishni, balki og‘zaki nutqning barcha komponentlarini – leksika, grammatika, fonetika va intonatsiyani – rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu tezisda ko‘zi ojiz bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda eshituv mashqlarining nazariy asoslarini va amaliy ahamiyatini ilmiy-metodik jihatdan yoritishga bag‘ishlangan.

### **KO‘ZI OJIZ BOLALARDA NUTQNING RIVOJLANISHI: NAZARIY ASOSLAR**

Ko‘zi ojiz bolalarda miya resurslari qayta taqsimlanadi: ko‘rish korteksi eshituv va nutq jarayonlariga jalb qilinadi. Neyroimaging tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, erta ko‘rlikda bolalar eshituv va nutq topshiriqlarini bajarishda ko‘rish korteksidan faol foydalanadi, bu esa eshituv xotirasi va farqlash qobiliyatini kuchaytiradi.

Ko‘zi ojiz bolalar eshituv signallarini aniqroq ajrata oladi, murakkab nutq tovushlarini tezroq o‘zlashtiradi va eshituv asosida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga erishadi.

#### Eshituv mashqlari turlari va ularning natijalari

<b>№</b>	<b>Mashq turi</b>	<b>Ta’siri va natijasi</b>
1	<b>Fonematik ong mashqlari</b>	So‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratish, tovushlarni tanish va birlashtirish orqali so‘z boyligi va talaffuzni oshiradi
2	<b>Eshituv farqlash mashqlari</b>	O‘xshash tovushlarni ajratish, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va lug‘at boyligini kengaytiradi
3	<b>Eshituv tushunish mashqlari</b>	Og‘zaki ko‘rsatmalarni bajarish, hikoya eshitib savollarga javob berish orqali nutqni tushunish va ifodalashni rivojlantiradi
4	<b>Ritm va intonatsiya mashqlari</b>	Gapda urg‘u, ohang va ritmni to‘g‘ri qo‘llash, nutq ravonligi va tabiiyligini oshiradi
5	<b>Tovush manbasini aniqlash</b>	Muhit tovushlarini yo‘nalish bo‘yicha aniqlash, eshituv diqqatini va nutq farqlash qobiliyatini kuchaytiradi
	Natijalar:	



- Soʻz boyligi va talaffuz aniq-ravshanligi oshadi
- Nutq ravonligi va intonatsiyasi yaxshilanadi
- Eshituv xotirasi va diqqat kuchayadi
- Mustaqil muloqot va ijtimoiylashuv osonlashadi

Koʻrish analizatorining zararlanishi bolaning atrofdagi dunyoni idrok etish imkoniyatlarini cheklab qoʻyadi. Lekin inson organizmining kompensator qobiliyatlari tufayli boshqa sezgi organlari – eshitish, sezish, hid bilish va maza bilish – faolligini oshiradi. Bu jarayon tiflopedagogikada "kompensatsiya" deb ataladi va L.S.Vigotskiy tomonidan chuqur tadqiq etilgan.

M.I.Zemtsova, L.I.Solntseva, A.G.Litvakning ilmiy ishlarida koʻrsatilishicha, koʻzi ojiz bolalarda eshitish analizatori rivojlanishining yuqori darajasiga erishiladi. Ayniqsa, erta yoshdan toʻgʻri eshituv mashqlarini oʻtkazish orqali bolalar nutqiy ohang (intonatsiya), soʻz urgʻusi, tovushlarni farqlash va gap qurilishini tez egallashlari kuzatilgan.

Oʻzbekistonlik olimlar O.Yo.Musurmonova va S.R.Xoliqovanning tadqiqotlarida taʼkidlanishicha, koʻzi ojiz bolalarda "verbalizm" hodisasi kuzatiladi – yaʼni bola soʻzni ishlatsa-da, uning real maʼnosini toʻliq anglamaydi. Bu holat eshituv mashqlarini tematik va kontekstli ravishda oʻtkazish orqali bartaraf etilishi mumkin.

Zamonaviy neyropedagogika nuqtai nazaridan, eshitish markazi (Vermike markazi) koʻzi ojiz bolalarda intensiv rivojlanadi. Bu esa eshituv mashqlarining samaradorligini oshiradi va ogʻzaki nutqning barcha darajalarida – fonologik, leksik, grammatik va matnli darajada – ijobiy dinamikani taʼminlaydi.

### **ESHITUV MASHQLARINING TURLARI VA ULARNING OGʻZAKI NUTQQA TAʼSIRI**

**Fonematik eshitishni rivojlantiruvchi mashqlar.** Bu turdagi mashqlar bolaning tovushlarni aniq farqlash, bir-biriga oʻxshash tovushlarni ajratish va soʻz tarkibini tahlil qilish koʻnikmalarini rivojlantiradi. Masalan, "Qaysi tovushni eshitding?", "Bu soʻzda nechta boʻgʻin bor?", "Soʻz oxiridagi tovushni ayt" kabi topshiriqlar. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, haftasiga 3-4 marta oʻtkaziladigan 20-25 daqiqalik fonematik mashqlar 3 oy ichida koʻzi ojiz bolalarda fonematik eshitishni 40-60% ga yaxshilaydi [A4; 22 b].

**Lugʻat boyligini rivojlantiruvchi eshituv mashqlari.** "Ovozni tanish", "Tabiat ovozlari", "Kim qanday gapiradi?" kabi mashqlar orqali bola yangi soʻzlar va tushunchalarni eshitish orqali oʻzlashtiradi. Tiflopedagogika amaliyotida koʻzi ojiz bolalar boshqa bolalarga qaraganda 30-35% koʻproq soʻzni quloq orqali oʻzlashtirishi aniqlangan. Bu esa eshituv mashqlarini lugʻat boyitishning asosiy usuli sifatida belgilaydi. [A2; 45 b]

**Intonatsiya va ritm mashqlari.** Savolni tasdiqdiy gapdan ajratish, his-tuygʻularni ovoz orqali ifodalash, sheʼriy parchalarni ohangga muvofiq oʻqish – bularning barchasi intonatsion nutqni rivojlantiradi. Koʻzi ojiz bolalar mimika va imo-ishoralarni koʻra olmagan sababli,



intonatsiya ularning asosiy muloqot vositasiga aylanadi. Shu bois, intonatsion mashqlar ularning ijtimoiy muloqotini to‘g‘ridan-to‘g‘ri takomillashtiradi.

**Diqqat va xotirani rivojlantiruvchi eshituv mashqlari.** "Nima o‘zgardi?", "Qanday tartibda eshitding?", "Hikoyani qaytarib ayt" kabi mashqlar bolaning eshituv xotirasi va diqqatini mustahkamlaydi. Bu ko‘nikmalar og‘zaki nutqdagi izchillik, mantiqiylik va leksik boylikka bevosita ta'sir qiladi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, muntazam eshituv mashqlaridan o‘tgan ko‘zi ojiz bolalar og‘zaki matni 2-3 marta qaytarishda norma ko‘ruvchi tengdoshlaridan ustun turadi [A5; 96].

**Musiqa va ritmik mashqlar.** Bolalar qo‘shiqlarini eshitish, musiqa ritmiga qarab harakatlanish, cholg‘u asboblarni tanish – bu mashqlar ham nutq rivojiga hissa qo‘shadi. Musiqa ritmi va nutq ritmi o‘rtasidagi bog‘liqlik neyropsixologik tadqiqotlarda isbotlangan: bir xil ritmik tuzilmani qayta-qayta eshitish nutq oqimining silliqligini oshiradi va duduqlanishni kamaytiradi.

### **ESHITUV MASHQLARINI TASHKIL ETISHNING AMALIY ASOSLARI**

Amaliy dasturlar va O‘zbekiston standartlari

<b>№</b>	<b>Dastur/Metodika</b>	<b>Yo‘nalish va natijalar</b>
1	Foundation In Sounds	Fonematik ong va eshituv farqlashni rivojlantiradi, nutq ravonligi va talaffuzni yaxshilaydi
2	Orton-Gillingham (moslashtirilgan)	Ko‘zi ojiz bolalar uchun multisensorli yondashuv, so‘z boyligi va talaffuzni oshiradi
3	Auditory Discrimination in Depth	Eshituv farqlash va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, og‘zaki nutq va imlo yaxshilanadi
4	O‘zbekiston ta’lim standartlari	Maxsus tiflopedagogik dasturlar, kichik guruh va individual mashg‘ulotlar, oilaviy hamkorlik tavsiya etiladi

Ko‘zi ojiz bolalar bilan eshituv mashqlarini o‘tkazishda quyidagi tamoyillarga amal qilish zarur:

Birinchi, muhit tartibi va akustik sharoit. Ko‘zi ojiz bola uchun ovozli muhit xavfsizlik belgisi hisoblanadi. Shu bois, dars xonasi shovqinsiz, akustik jihatdan qulay bo‘lishi, mashqlar doimo bir xil joyda o‘tkazilishi lozim. Xona akustikasining buzilishi bolada stress va nutqiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Ikkinchi, ketma-ketlik va izchillik. Eshituv mashqlari sodda tovushlardan murakkab gaplarga qarab kengaytirib borilishi kerak. Avvalo alohida tovushlar, so‘ngra bo‘g‘inlar, keyin so‘zlar, nihoyat gap va matnlar bilan ishlash pedagogik jihatdan oqilona hisoblanadi



[A6; 14 b].

Uchinchidan, ko'p sezgilik (polisensor) yondashuv. Eshituv mashqlari sezish (taktil) va harakat (kinestetik) mashqlari bilan birgalikda olib borilsa, samaradorlik oshadi. Masalan, tovushni eshitib, uni qo'lning barmoqlari bilan ifodalash ham nutq shakllanishiga, ham mayda motorikaga ijobiy ta'sir qiladi.

To'rtinchidan, o'yin shakli va motivatsiya. Ko'zi ojiz bolalar bilan eshituv mashqlarini o'yin ko'rinishida o'tkazish ularning faolligini va qiziqishini oshiradi. "Ovoz lotto", "Kim qayerdan gapiradi?", "Sas topishmoq" kabi o'yinlar bola uchun qiziqarli bo'lishi bilan birga, nutq rivojiga ham katta hissa qo'shadi.

Beshinchidan, oila bilan hamkorlik. Ko'zi ojiz bolaning nutq rivojida ota-onaning roli beqiyos. Ota-onalar bolaga ertak o'qib berishi, uning savollari bilan faol muloqot qilishi, har kuni 15-20 daqiqa eshituv mashqlari o'tkazishi nutq rivojlanishini sezilarli tezlashtiradi. Tiflopedagog va ota-onaning birgalikdagi ishi 70-80% hollarda ijobiy natija beradi [A1;184]. Ilmiy ishlarda eshituv mashqlarining ko'zi ojiz bolalar nutqini rivojlantirishdagi muhim o'rnini empirik jihatdan tasdiqlaydi. Bunda mashqlarning muntazamligi (haftasiga kamida 4 marta), pedagogning maxsus tayyorgarligi va individual yondashuv asosiy omillar sifatida aniqlaydi.

Tadqiqot davomida yana bir muhim ko'rsatkich aniqlandi: eshituv mashqlarini boshqa maxsus texnologiyalar – Brayl o'qish, orientatsiya-mobillik mashqlari – bilan birgalikda olib borish 18-20% qo'shimcha samara berdi. Bu eshituv mashqlarining kompleks tizimining bir qismi sifatida qo'llanilishining afzalligini ko'rsatadi.

### **XULOSA**

Ko'zi ojiz bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda eshituv mashqlari strategik ahamiyatga ega pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu maqolada bayon etilgan ilmiy-nazariy asoslar va amaliy tavsiyalar quyidagi xulosalar bilan umumlashtirilishi mumkin:

Ko'rish qobiliyatining yo'qligi yoki kamayishi sharoitida eshitish sezgisi bolaning asosiy ma'lumot qabul qilish kanali bo'lib, uning maqsadli rivojlantirilishi nutq shakllanishida asosiy kompensator mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Fonematik, leksik, intonatsion va ritmik yo'nalishlardagi eshituv mashqlarining majmuasi og'zaki nutqning barcha komponentlarini – fonetika, lug'at boyligi, grammatik tuzilish va muloqot ko'nikmalarini – bir vaqtda rivojlantirishga imkon beradi.

Eshituv mashqlarining samaradorligi ko'p jihatdan pedagogning malakasi, mashqlarning tizimli tashkil etilishi, qulay akustik muhit va oila bilan hamkorlikka bog'liq. Bu omillar kompleks tarzda ta'minlanganda natija 2-3 baravar oshadi.

Zamonaviy texnologiyalar – ovoz yozuv qurilmalari, maxsus audio kutubxonalar, kompyuter dasturlari – eshituv mashqlarining imkoniyatlarini kengaytiradi va individuallashtirilgan ta'lim rejalarini yaratishga sharoit yaratadi.

Keyingi tadqiqotlarda eshituv mashqlarining yoshga qarab (maktabgacha, boshlang'ich, o'rta



ta'lim) differensiallashtirilgan metodikasini ishlab chiqish va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasini o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Ko'zi ojiz bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda eshituv mashqlari ilmiy asoslangan, samarali va zaruriy metod hisoblanadi. Neyroplastiklik va kompensator mexanizmlar tufayli eshituv mashqlari so'z boyligi, talaffuz, ravonlik va intonatsiyani sezilarli darajada yaxshilaydi. Tiflopedagogika mutaxassislari va O'zbekiston ta'lim standartlari tavsiyalariga ko'ra, individual yondashuv, bosqichma-bosqich murakkablashuv, erta va tizimli mashg'ulotlar, hamda oilaviy hamkorlik eshituv mashqlarining samaradorligini oshiradi. Shu bois, eshituv mashqlari ko'zi ojiz bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda asosiy va ajralmas vosita sifatida e'tirof etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. N.X.Alimova. Ko'zi ojiz bolalar bilan ishlashda oila va maktab hamkorligi. O'qituvchi nashriyoti. Toshkent. 2022. 184 b.
2. B.A.Karimov, Tiflopedagogikada eshituv analizatorini rivojlantirish usullari. Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali, 2021. 3(2), 45–58.
3. O.Yo.Musurmonova. Maxsus pedagogika: ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar bilan ishlash metodikasi. Toshkent. 2019. Yangi nashr. 256 b.
4. Z.K.Nazarova. Ko'zi ojiz maktab yoshidagi bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirish. Maxsus ta'lim muammolari, 2019. 1(4), 22–31.
5. D.S.Rahimova. Eshituv mashqlari orqali ko'zi ojiz bolalar nutqini rivojlantirish tajribasi. Ilmiy-metodik to'plam. FDPI nashriyoti. Farg'ona. 2020. 96 b.
6. M.T.Usmonova. Ko'rish nuqsonli bolalarda nutqning o'ziga xos xususiyatlari. Defektologiya, 2018. 2(1), 14–26.
7. S.R.Xoliqova. Inklyuziv ta'limda ko'zi ojiz bolalarga differensiallashtirilgan yondashuv. O'zbekiston ta'limi jurnali, 2021.5(3), 67–79.
8. G.H.Yusupova. Tiflopedagogik mashqlar to'plami: ko'zi ojiz bolalar uchun eshituv va nutq rivojlantiruvchi o'yinlar. Toshkent. 2023. Maktab. 120 b.
9. F.B.Toshmatova. Ko'rish qobiliyati cheklangan bolalarda leksik rivojlanishning o'ziga xos tomonlari. Pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy anjuman materiallari. Toshkent. 2020. 112–119.
10. A.N.Xasanov, I.R.Mirzayev Maxsus ehtiyojli bolalar uchun nutq terapiyasining zamonaviy usullari. Toshkent. 2022. Turon-Iqbol. 210 b.
11. R.R.Qodirov. Sezgi organlarining kompensator rivojlanishi: neyropedagogik aspektlar. O'zbekiston milliy universiteti ilmiy xabarlar, 2021. 4, 88–97.
12. M.S.Bekmurodova. Ko'zi ojiz bolalarda og'zaki muloqot ko'nikmalarini shakllantirish. Pedagogik mahorat, 2023. 2, 33–41.